



JAVOBGARLIKNI OG'IRLASHTIRADIGAN HOLATLARDA QASDDAN BADANGA SHIKAST YETKAZISHNING JINOYAT-HUQUQIY JIHATLARI

Usmonqulova Maftuna Vali qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti, "Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi
va amaliyoti" yo'nalishi, magistrant

Usmonqulovamaftuna2000@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11385270>

Annotatsiya: Milliy qonunchiligimizga muvofiq fuqarolarning sog'ligi va jismoniy daxlsizligini turli xil tajovuzlardan muhofaza qilish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Jinoyat qonunida fuqarolar sog'ligiga turli xildagi tajovuzlarni sodir etganlik uchun javobgarlik belgilangan normalar orqali qonunga xilof harakatlardan himoya qilinadi. Ushbu tezisda javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan badanga shikast yetkazish jinoyati tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlari va javobgarlik masalalari bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: jinoyat, badanga shikast yetkazish, og'irlashtiruvchi holatlar, to'g'ri qasd, egri qasd, harakat, javobgarlik.

Badanga shikast yetkazish deb – inson tanasining biron-bir a'zosiga muayyan darajada tan jaroxati yetkazishni tushunmoq lozim. Ya'ni yetkazilgan tan jaroxati natijasida shaxsning sog'lig'ining yo'qolishi yoki a'zolarining yo'qolishi, yoxud a'zolari saqlanib qolsa-da, ularning o'z faoliyatini yo'qotishi yoki badanning anotomik butunligining buzilishiga yoxud mehnat qobiliyatining ma'lum darajada yo'qotishi hollari yoki homilaning tushushini tushunish kerak. Biroq yuridik adabiyotlarda badanga shikast yetkazishning yagona tushunchasi hanuzgacha ishlab chiqilmagan.

Badanga shikast yetkazishning tushunchasini yoritib berishdagi farqlar, birinchidan, badanga shikast yetkazishning obyektni turlicha ta'riflashda (ba'zilar bunday obyekt sifatida sog'liqni belgilangan bo'lsalar, boshqalar jismoniy daxlsizlikni belgilaganlar), ikkinchidan, urish, do'pposlash, qiynashlarni badanga shikast yetkazishlar jumlasiga kiritish mumkinligidan iborat bo'lgan, uchinchidan, bular jumlasiga jismoniy og'riq beruvchi, ammo boshqa oqibatlarni keltirib chiqarmaydigan zo'rlik ishlatib qilingan boshqa harakatlarni kiritish mumkinligidan iborat bo'lgan¹.

Badanga shikast yetkazish deb topilishi mumkin bo'lgan sog'liqqa zarar yetkazishning chegaralarini aniq belgilash va uni boshqa zo'ravonlik

¹Eustamboev M.K. Tohirov F., Erkaho'jaev A.K. Jinoyat huquqi Maxsus qismi T.2000. -54 b.





tajovuzlaridan farqlash imkonini beradigan ikkita obyektiv mezon asos qilib olingan, bular:

1)odam tanasi a'zolari va to'qimalarining anatomik bus-butunligi yoki bir meyorda ishlab turishining buzilganligi;

2)odam sog'ligiga, sud tibbiy ekspertizasi yordamida yetkazilgan zararning og'irligi va darajasoini aniqlash imkonini beradigan zararning yetkazilganligi².

Demak, mazkur mezonlarni inobatga olgan holda, badanga shikast yetkazishni o'zga kishining sog'ligiga uning xohishiga zid ravishda, tashqi muhit omillari ta'siri ostida to'qimalar yoki azolarning anotomik butunligiga yoki fiziologik funksiyalari buzilishiga sabab bo'lgan g'ayriqonuniy zarar yetkazish deb tariflasak bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 104-moddasi 3-qismida javobgarlikni o'ta og'irlashtiradigan holatda qasddan badanga og'ir shikast yetkazishning quyidagi belgilari ko'rsatilgan:


- a) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan;
- b) takroran, xavfli residivist yoki ilgari ushbu kodeksning 97-moddasida nazarda tutilgan tarzda qasddan odam o'ldirgan shaxs tomonidan ;
- v) o'ta xavfli residivist tomonidan;
- g) uyushgan guruh a'zosi tomonidan yoki shu guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa;
- d) jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lsa.

JKning 104-moddasi 3-qismining "a" bandi bilan javobgarlikka tortishni zaruriy belgisi etib jinoyatning obyektiv tomoni qabul etilgan, ya'ni shaxs ikki yoki undan ortiq shaxslarning sog'lig'iga tajovuz qilishni yagona qasd bilan qamrab olinganligi va bir vaqtda sodir etilganligiga e'tibor berish lozim.

Qasddan badanga og'ir shikast yetkazish ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan qilinganligi jinoiy niyatning yagonaligini ko'rsatuvchi zaruriy belgidir. Yagona jinoiy niyat bilan qamrab olingan, turli vaqtlarda sodir etilgan qasddan badanga og'ir shikast yetkazish ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan deb topish uchun to'g'ri qasdning mavjudligini aniqlash lozim bo'ladi. Bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq shaxsning badaniga og'ir shikast yetkazish nafaqat to'g'ri qasd, balki egri qasd bilan ham sodir etilishi mumkin.

Qasddan ikki yoki undan ortiq shaxslarning badaniga og'ir shikast yetkazishni 104-moddasi 3-qismi "b" bandida nazarda tutilgan takroran qasddan badanga og'ir shikast yetkazishdan farqlash lozim. Ikki yoki undan

²Eustamboev M.K. Tohirov F., Erkaho'jaev A.K. Jinoyat huquqi Maxsus qismi T.2000. -56 b.





ortiq shaxslarning badaniga og'ir shikast yetkazish deganda bir vaqtda yagona qasd bilan ikki yoki undan ortiq shaxslarning badaniga og'ir shikast yetkazish tushuniladi. Masalan, o'qotar yoki boshqacha quroldan foydalanib jabrlanuvchilarning badaniga og'ir shikast yetkazish.

Takroran badanga qasddan og'ir shikast yetkazish deganda esa, turli vaqtlarda 104-moddaning bitta qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir qilib, aybdor ulardan birortasi uchun ham hali sudlanmagan bo'lishi kerak.

Agarda jabrlanuvchi bir kishi bo'lib, aybdor uning badaniga og'ir shikast yetkazgan, ma'lum vaqt o'tganidan keyin yana o'sha shaxsning badaniga og'ir shikast yetkazsa, qilmish takroran qilingan deb hisoblanishi lozim.

"Besh yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin bo'lgan qasddan yangi jinoyat sodir etish, ya'ni:

a) ilgari o'ta og'ir jinoyati uchun yoki ikki marta og'ir jinoyati uchun hukm qilinib, ularning har biri uchun besh yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxs tomonidan o'ta og'ir jinoyat sodir etilishi;

b) ilgari og'ir jinoyati uchun ikki marta hukm qilingan yoki oldin-keyinligidan qat'iy nazar, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar uchun ularning har biriga besh yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxsning og'ir jinoyat sodir etishi o'ta xavfli residiv jinoyat deb topiladi"¹.

Uyushgan guruh a'zosi tomonidan yohud o'sha guruh manfaatlarini ko'zlagan holda qasddan badanga og'ir shikast yetkazish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 104-moddasi 3-qismining «g» bandiga muvofiq kvalifikatsiya qilinadi. Agar og'ir jinoyat jinoiy uyushma a'zosi tomonidan sodir etilgan bo'lsa, u holda aybdorning harakati O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 242-moddasi tegishli qismi bilan ham baholanishi lozim.

Subyektning harakatini O'zbekiston JKning 104-moddasi 3-qism "d" bandi bilan kvalifikatsiya qilish uchun birinchi navbatda yetkazilgan shikast og'ir darajada bo'lishi kerak. Agar yetkazilgan shikast o'z xarakteri bilan og'ir darajada yetkazilmagan bo'lsa, u holda aybdorning harakatini bu jinoyat tizimi bilan kvalifikatsiya qilib bo'lmaydi. Agar haqiqatdan ham aybdor shaxs jabrlanuvchiga og'ir shikast yetkazishga qasd qilgan bo'lsa, oqibatda jabrlanuvchining o'limi kelib chiqsa, u holda aybdorning sodir qilgan harakati

¹O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. Toshkent."Adolat". 1998 yil. 16-bet.





natijasida o'limga olib kelgan aybni og'irlashtiradigan holatlarda badanga og'ir shikast yetkazish deb qaraladi

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, badanga yetkaziladigan og'ir shikastni kvalifikatsiya qilish uchun bunday jinoyatlar subyektiv tomonining muhim belgilari e'tiborga olinishi kerak.

Badanga jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lgan og'ir shikast yetkazish va qasddan odam o'ldirish tarkiblarini faqat aybdor qasdining mazmuni va yo'nalishiga qarab farqlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi [2023-yil 1-sentabrgacha bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalari bilan] - T.: "Yuridik adabiyotlar publish", 2023 y. - 584b.
2. Rustamboev M.K. Tohirov F., Erkaho'jaev A.K. Jinoyat huquqi Maxsus qism. T.2000. -528 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2007-yil 27-iyundagi 27- sonli "Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Plenum qarori. T.: 2007 y. 1-10 betlar.

